



X-XIII ASRLARDA TA'LIM TIZIMINING MOVAROUNNAHR MARKAZIY SHAHARLARIDAGI TUTGAN O'RNI

Nazarov Otabek Ramazonovich

Yangi Asr Universiteti, Tarix yo'nalishi, 1-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15721528>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 15-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 23-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

Movarounnahr, ta'lim tizimi, madrasalar, islomiy sivilizatsiya, O'rta asr ilmiy maktablari, Buxoro va Samarqand ilmiy markazlari

ABSTRACT

Mazkur maqolada X-XIII asrlarda Movarounnahrning markaziy shaharlari — Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Xiva, Shosh (Toshkent), Marg'ilon kabi ilmiy-ma'rifiy markazlarda shakllangan ta'lim tizimi, uning diniy va dunyoviy fanlar asosidagi tarkibi, madrasalar faoliyati va buyuk allomalar merosi asosida ilm-fanning rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida ilmiy izlanish olib borilgan.

Islom dini Movarounnahrda kirib kelgach, bu hududda diniy ta'lim tizimi shakllandi. IX asrga kelib esa bu ta'lim tizimi mustaqil ravishda rasmiy madrasalar shaklida takomillasha boshladi. X-XIII asrlarda Movarounnahr markaziy shaharlarida ta'lim tizimi, ilm-fan va madaniyat rivojlanishida ajralmas o'rin tutgan Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Xiva, Shosh (Toshkent), Marg'ilon kabi shaharlar musulmon sharqidagi ilmiy-madaniy markazlar qatorida shuhrat qozongan. Madrasalar Movarounnahrning ilmiy va diniy ta'lim muassasalarining markazi bo'lib, ularda Qur'on, hadis, fiqh, tafsir, matematika, astronomiya, mantiq, falsafa va boshqa ilmiy va dunyoviy fanlarni ham o'rgatadigan muassasalarga aylandi¹. Madrasalar o'zining tizimli o'quv dasturi bilan ajralib turardi. Har bir madrasada ma'lum bir ilmiy yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilimlar berilar edi, shu bilan birga, diniy ta'lim va dunyoviy ilmni birlashtirish orqali o'quvchilarni yuksak bilim va ma'naviyatga tayyorlashga harakat qilinardi.

X-XIII asrlarda barcha musulmon mamlakatlarida ta'lim-tarbiya tizimi uch bosqichdan: boshlang'ich ta'lim, umumta'lim va oliy ta'limdan iborat bo'lgan. Boshlang'ich ta'lim masjidlar qoshidagi maktablarda berilgan va u besh yilga mo'ljallangan, o'quvchilar 4-5 yoshdan qabul qilingan. O'g'il bolalar masjid imomlari, qizlar ayol xalfalar qo'lida tarbiyalangan. Boshlang'ich maktablarda arab yozuvi va o'qish, Qur'oni Karim va hadisdan olingan namunalar, abjad hisobi, she'riy kitoblar, pandnoma, axloq-odob qoidalari o'qitilgan. O'quvchilar o'qitilish bosqichiga qarab "Haftiyakxon", "Abjadxon" va "Qur'onxon" deb yuritilgan. Maktablardagi ta'lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o'rgatish jarayoni ko'p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o'rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, ba'zida undan ham ko'p vaqt sarflangan. Har bir maktabda 20 ga yaqin o'quvchi bilim olgan. Maktab darslarini mullalar olib borgan. Mulla – Movarounnahrda musulmon odatining bilimdoni, din

¹ Bobojonov. Sh. Movarounnahrda islom ilmlari rivoji. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008. –B.45.

xizmatchisi, diniy maktab o'qituvchisi, savodli, ilmi kishi hisoblangan. Domla – katta mulla degan ma'noni anglatgan.

O'quvchilar dastlabki o'qish ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng "Haftiyak"ni (forscha, "Qur'oni Karimning yettidan bir qismi") o'qishni boshlaganlar. Ushbu kitob Qur'oni Karimning diniy marosimlarni ado etishda ko'proq (13-14 ta) o'qiladigan kichikroq suralarini o'zida jamlagan, qiroat kitobi shakliga keltirilgan. "Haftiyak"ni o'qish maktablarda ikki yilgacha, ba'zan undan ham uzoq davom etgan. "Haftiyak" maktablarda xrestomatiya vazifasini o'tagan birinchi qo'llanma hisoblanadi. O'quvchilar "Haftiyak"ni tugatganlaridan so'ng "Chor-kitob" (To'rt kitob)ni o'qishga kirishganlar. "Chor-kitob" – islomga oid pand-nasihatlar kitobi. Kitobda toat-ibodat, shariatning qonun-qoidalar: farz, sunnat, namoz va ro'za haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, unda qiziqarli voqea va hikoyatlar, sharqona donolik namunalari bayon etilgan. Kitob fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, turkiy-o'zbek tilidagi tarjimalari ham mavjud. "Chor-kitob" har xil davrlarda turli mualliflar tomonidan tuzilgan. IX asrda Sharafiddin Sanoiy al-Buxoriy qalamiga mansub bo'lib, u 2 she'riy va 2 nasriy majmuadan iborat "Nomi Haq", "Chahor kitob" ("To'rt kitob") deb nomlanuvchi maktab darsligining birinchi qismida diniy amallar (tahorat, namoz, ro'za va h.k.)ga oid masalalar she'riy usulda bayon etilgan, ikkinchi qismida Qozi Azmuddin "Bidon" (Bilgil) nomli kitobidan olingan va yuqoridagi masalalar izoh shaklida ancha keng yoritilgan parchalar o'rin olgan. "Chor-kitob"ning "Musulmonlikning muhim masalalari" deb nomlangan uchinchi qismi o'quvchilarni shariatning asosiy ustuni, ya'ni musulmon huquqshunosligi bilan tanishtiradi. Kitobning "Pandnoma" (Nasihat kitobi) deb nomlangan to'rtinchi qismi XIII asrda yozilgan va Qur'oni Karimdan olingan odob-axloq masalalariga oid qoidalar she'riy shaklda bayon etilgan. XIII asrda 150 ming aholi yashagan Samarqandda 250 ta masjid va 40 ta madrasa bo'lgan. Buxoroda esa 200 ming aholiga 400 masjid va 30 ta madrasa to'g'ri kelgan. Olim K.Kattayevning fikriga ko'ra, Samarqanddagi Raboti G'oziyon madrasasi yana ham qadimiyroq bo'lib, unda Imom Moturidiy, Abulqosim Hakim kabilar Muhammad ibn Fazl Balxiydan (vaf. 931-y.) tahsil olgan². Madrasaga maktabni tugatgan o'spirinlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo'lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo'lgan. Talabalar kunduzgi bo'lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo'lim talabalari toifalariga ajratilgan. Madrasalarda ta'lim olayotgan talabalar uchun ta'lim dasturlari uch bosqichga ajratilgan: birinchi, quyi bosqich – (adno yoki iptidoiy), ikkinchi, o'rta bosqich – (avsat yoki rushdiy) va uchinchi, yuqori, oliy bosqich – (a'lo yoki iqdadiy) guruhi deb yuritilgan³. Har bir bosqich uchun alohida dastur ishlangan bo'lib, bir bosqichdan navbatdagi bosqichga o'tish yakuniy imtihonlar orqali hal etilgan. Shu bilan talabalarning oladigan nafaqalari (stipendiya) ham oshirilib borilgan.

Madrasa o'quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirish bilan boshlangan. Adno bosqichi "Aqoid" kitobini o'qishga o'tguncha davom etgan, avsat bosqichi "Aqoid" kitobini o'qishdan boshlanib, "Sharhi mulla" kitobini o'rganguncha bo'lgan va undan keyingi murakkab qo'llanmalarni o'rganuvchilar a'lo bosqich talabalari hisoblangan. Madrasada o'qish talabalar iqtidoriga qarab, o'rtacha 7-12 yil davom etgan⁴. Har bir madrasada 60-100 ga yaqin talabalar bilim olganlar. O'rta bosqichdagi

² http://fikr.uz/blog/toshkent_islom_universiteti/html

³ Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.58.

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – J:5.– Toshkent: O'zME, 2003. – B. 376.

madrasalarda ta'lim oluvchilar musulmon ta'limoti, qonunshunoslik, mantiq, qadimiy falsafa, qiroat, tajvid, hisob-kitob, geografiya, arab va fors tillarini o'qiganlar. O'qish kursining birinchisi o'rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi o'qitilgan – arabshunoslik (leksikografiya, etimologiya, sintaksis, ritorika, tarix), o'quv kursi ikki bo'limga: umumta'lim kursi – mushkulot – falsafa (mantiq, geografiya, tibbiyot, tabiiy fanlar va kalom ilmi), so'ng fiqh kursi – masala – dinshunoslik va qonunshunoslik (Qur'on tafsirlari, hadislar, shariat qonunlari, faroiz – meros huquqi, matematika, mol-mulkni taqsimlash) bo'limlariga ajratilgan. Talabalar o'z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo'limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo'limni o'qib tamomlashlari mumkin edi. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 140 ga yaqin darslik-qo'llanmani o'zlashtirish talab etilgan. Madrasalarda talabalarining qiziqishlari va mudarrislarining mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, kimyo, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar ham o'qitilgan. Asosiy ta'lim metodlari ma'ruza va bahs-munozaralarni tashkil qilgan. Ma'ruza (va'zxonlik)larda 100 tadan 400 tagacha tinglovchilar, ta'lim oluvchilar qatnashgan. O'rta tipdagi madrasalarning vazifalariga maktablar uchun mullalarni tayyorlash, masjid uchun din peshvolarini tayyorlash kirgan. Oliy tipdagi madrasalarning vazifalariga davlat idoralari, boshqaruv mahkamalariga qozilarni tayyorlash, shariat ulamolarini tayyorlash, musulmon qonunshunoslarini tushunadigan mutaxassislarni tayyorlash kirgan. Madrasalarga nafaqat diniy bilimlarga qiziquvchilarni, balki turli ziyoli tabaqalari, o'qituvchilik, tabiblik kasbini egallashni xohlovchilarni ham o'qitganlar. Oliy tipdagi madrasalar Samarqand, Buxoro, Urganchda bo'lgan, shuning uchun turli yurtlardan tolibi ilmlar kelib ta'lim olib, bu yurtlarning dong'ini dunyoga tanitganlar. Movarounnahr madrasalarda ta'lim beradigan mudarrislar arab tilida dars olib borishlaridan tashqari, adabiyot va ilmiy talablar asosida fors tilida hamda turkiy tillarda ta'lim berganlar. Bundan tashqari, arab va fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilib, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan⁵ Madrasada mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o'quv jihozlari (daftar, kitob, qalam va b.) va turar joy bilan ta'minlangan. Madrasada arab, fors va turkiy allomalarning asarlaridan tashqari qadimgi hind va yunon olimlaridan Klavdiy Ptolomey, Suqrot, Platon, Aristotel va boshqalarning arab tiliga o'girilgan asarlari hamda ularga yozilgan sharhlar darslik sifatida o'qitilgan. Badiiy adabiyotga doir asarlardan Abulqosim Firdavsiy, Forobiy, Ibn Sino hamda Beruniy asarlari sevib o'rganilgan⁶. Madrasalarga talabalar imtihon yoki tanlov asosida o'qishga qabul qilingan. Mudarrislar ham imtihon qilingan va davlat rahbari tomonidan tayinlangan. Mudarrislar dars berishdan tashqari qozilik, muftiylik kabi davlat ishlari bilan ham shug'ullanib turishgan. O'qish yili oxirida ham talabalar o'tilgan fanlar yuzasidan imtihon topshirishgan. Imtihon bevosita ota-onalar ishtirokida qabul qilingan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma (diplom) topshirilgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlaganlar islomning yetuk ulamolari: shayx, shayxulislom, mulla, imom, mudarris, maktab muallimi yoki qozi, muftiy, a'lam, mirzo sifatida davlat mahkamalariga yuborilgan. XIII asr oxiri boshlab madrasalar xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlarga bo'lingan⁷ Madrasa muassislari madrasani

⁵ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – J:5. – Toshkent: O'zME, 2003. – B. 376.

⁶ Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 52 .

⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – J:5. Toshkent: O'zME, 2003. – B. 376.

ta'minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan. Ularning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko'rsatilgan⁸

Madrasalarni boshqarish, o'qitish jarayoni va xo'jalik ishlariga shayxulislom va qozilar rahbarlik qilishgan. U vaqf yerlaridan kelgan daromadlarni, ushr, sadaqa va ehsonlarni madrasa ehtiyojlariga taqsimlab sarflagan. Mutavalli vaqf kirimlari, madrasaning moliyaviy xarajati, ta'mirlash, xodim va talabalarga to'lanadigan haq va boshqa ishlarga mas'ul bo'lgan. Madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ovqatlik don hisobidan ajratilgan⁹ Madrasalarning ehtiyojlariga vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta'mirlash uchun ajratilgan, ma'lum qismi esa mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan. XIII asrga kelib madrasa-maqbaralar vujudga kelib bitta gumbazli xonasi shu madrasa asoschisiga daxma sifatida xizmat qilgan. U 2 qavatli, to'g'ri burchakli hovli, mudarris va toliblar uchun hovli atrofida yashash uchun hujralar va darsxonalaridan tashkil topgan. Har bir madrasa qoshida o'zining kutubxonasi bo'lgan¹⁰

Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg'ulotlar, odatda, sentabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta'tilga chiqilgan. Madrasalarda shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari mashg'ulotlar olib borilgan. Haftada ikki kun ya'ni chorshanba va payshanba kunlari mustaqil mutolaa kunlari, juma kuni esa dam olish kuni bo'lgan. Madrasalarda bir o'qish yili 7 oy davom etadi. O'qish yili mezon oyining birinchi kuni 21 sentabrda boshlanib, hamal oyining birinchi kunida 21 martda tugallangan. Qolgan oylar ta'til kunlari hisoblanib, talabalar bu vaqtda xo'jalik ishlari bilan shug'ullangan¹¹. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod namozidan keyinroq) boshlangan. Madrasalarda talabalarning ta'lim va tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularga har kuni to'rt mahal issiq ovqat va iqtidorli talabalarga qo'shimcha mukofotlar ajratilgan. Madrasalarda ichki tartib-intizomga qat'iy amal qilingan. Madrasa nizomini buzgan talaba va xizmatchilar uch marotabagacha ogohlantirilgan, kamchilik yana takrorlansa, bunday shaxslar madrasadan chetlashtirilgan. Lekin bunday ko'ngilsizlik juda kamdan-kam sodir bo'lgan. Madrasaning ichki hayotiga daxldor masalalar mutavalli, mudarrislardan tarkib topgan hay'at kengashida hal etilgan.

Movarounnahr sivilizatsiyasi taraqqiyotida Samarqand va Buxoro shaharlari yirik madaniy va ilmiy markaz sifatida alohida o'rin egallagan. Ular asrlar davomida islom dini, ilm-fan va ma'naviy hayotning rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Samarkand ro'yi zaminning sayqali bo'lsa, Buxoro islom dinining quvvati va qudrati sifatida butun olamga ma'lum. Buxoroni dunyo sivilizatsiyasiga beshik bo'lgan shaharlardan biri desak mubalag'a emas. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov Buxoro shahrining 2500 yilligi yubileyida ta'kidlaganidek: "Buxoro o'lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlarini taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan, shariflik nomiga sazovor

⁸ Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.52 .

⁹ Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.82.

¹⁰ Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.110.

¹¹ Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.63.

bo'lgan muqaddas joylaridan biridir"¹². Buxorodagi madrasalarning nufuzi va ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan. Shu sababdan omma orasida turli mintaqalardan bu yerga kelib ta'lim olishga qiziqish katta edi. Muarrir Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniyy (1113 – 1167) "Kitab al-ansob" (Nasabnoma) asarida uning ilm-ma'rifat markazi ekanini quyidagicha ta'riflaydi: "Buxoro shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ziyolilari jamlangan, Yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda fozillarga panoh bo'lgan maskan edi".

Buxoro madrasalari, shuningdek, ilm-fan rivojida markaziy rol o'ynagan. Buxoro madrasalarida diniy ilmlardan tashqari nahv va sarf (morfologiya va grammatika), adab (adabiyot), xatoba (notiqlik), riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), jug'rofiya (geografiya), falsafa kabi fanlar o'qitilgan. Ayrim ixtisos-lashgan madrasalarda aniq va tabiiy fanlar maxsus o'rgatilgan. Xususan, tibbiyotga ixtisoslashgan madrasalarda Abu Ali Ibn Sino, Abu Bakr Roziy kabi buyuk allomalarning asarlari o'rganilgan.¹³ Ibn Sinoning "Al-Qonun fit-tib" asari butun Islom olamida, shu jumladan Movarounnahrda keng o'qilgan va hozirga qadar foydalanib kelinadi.

Ushbu davrda Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi shaharlar, ilmiy markazlar sifatida, o'rta asrlarning yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylangan. Madrasalar, masjidlar va kutubxonalar orqali ta'lim tizimi shakllangan, ilm-fan va diniy bilimlar o'rtasidagi integratsiya nafaqat mahalliy hududlarda, balki butun Islom olamida katta ta'sir ko'rsatgan. Movarounnahr markaziy shaharlaridagi madrasalar va masjidlar, ta'lim tizimining asosiy muassasalari sifatida shakllangan. Madrasalar ilm-fan, falsafa, tibbiyot, astronomiya va boshqa ko'plab sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan markazlar bo'lgan. Bu davrda Buxoro va Samarqanddagi madrasalar faqat diniy bilimlarni emas, balki ilmiy va falsafiy tafakkur bilan bog'liq bilimlarni ham o'rgatgan. Masalan, Buxorodagi madrasalarda Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy kabi olimlarning asarlari o'qitilgan, bu esa o'rta asrlarning ilmiy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.¹⁴

Movarounnahrda kutubxonalar ilm-fan va ta'limni rivojlantirishda ajralmas rol o'ynagan. Buxorodagi kutubxonalar, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniyy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariylar kabi ko'plab olimlarning asarlarini saqlagan va ularga ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyat yaratgan. Bu kutubxonalar nafaqat astronomiya, balki ijtimoiy fanlar, tarix, va falsafa sohalaridagi asarlarni o'zida Buxoro va Samarqand kutubxonalari faqat mahalliy ilmiy muassasalar uchun emas, balki butun Islom olami uchun ilmiy manba sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, bu kutubxonalar o'z vaqtida ilmiy anjumanlarga mezbonlik qilgan va ilmiy yutuqlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Movarounnahrda ta'lim tizimi o'rtasida diniy va ilmiy sohalarning integratsiyasi kuzatilgan. Bu davrda ilm-fan va diniy bilimlar o'rtasida to'liq uyg'unlik mavjud edi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar ko'plab diniy qarashlarga asoslangan. Ibn Sinoning "Qonun fit-tibb" asari Samarqand madrasalarida darslik sifatida foydalanilgan¹⁵. Ibn Sino o'zining tibbiyot bo'yicha ilmiy asarlarini diniy e'tiqodlar bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan va bu asar ko'plab o'rta asrlar olimlari tomonidan o'rganilgan¹⁶.

¹² Каримов И. Маънавий юксалиш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистан, 1998. – Б.369.

¹³ Beruni, A. *Qonun fi tibb*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.

¹⁴ Islomov, A. *Buxoro madrasalari va ularning ilmiy roli*. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2005.

¹⁵ Gutas, D. *Avicenna and the Aristotelian Tradition*. – Brill, 2001.

¹⁶ Islomov, A. *Buxoro madrasalari va ularning ilmiy roli*. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2005.

Abu Bakr Narshaxiy (10-asr): Buxoroning tarixini yozgan. Uning “Tarixi Buxoro” asari Buxoro ilm-fan markazi sifatida rivojlanganligini ko’rsatadi¹⁷.

Abu Nasr Forobiy (870–950): Garchi Forobda tug’ilgan bo’lsa-da, u Movarounnahr madrasalarida ham ta’lim bergan, mantiq va falsafa fanlarini rivojlantirgan¹⁸.

- Buxoro madrasalari: Ismoil Somoniy davridan boshlab Buxoro yirik ilm markaziga aylandi. Bu yerda Qur’on ilmi, fiqh, hadis, nahv, mantuq (mantiq), falakiyot kabi fanlar o’qitilgan¹⁹.

- Samarqand madrasalari: Samarqandda astronomiya, matematika, geometriya fanlari yuqori darajada rivojlandi. Ayniqsa, XI–XII asrlarda bu yerda ilmiy jamoalar shakllangan²⁰.

- Termizdagi ta’lim muassasalari: Termiz shahrida Najmiddin Kubro kabi yirik so’fiylar faoliyat yuritib, tasavvuf ilmi va axloqshunoslik rivoj topgan²¹.

Umuman olganda IX–XIII asrlarda Movarounnahr madrasalarida o’qitilgan asosiy fanlar va sohalar quyidagilardan iborat:

Diniy fanlar:

- Tafsir (Qur’on talqini)
- Hadis (Payg’ambar so’zlari)
- Fiqh (Islom huquqi)
- Aqida (e’tiqod ilmi)

Til va adabiyot fanlari:

- Nahv va sarf (arab tili grammatikasi)
- Adabiyot va bayon
- She’riyat va lug’atshunoslik

Aqliy fanlar (ma’quliyot):

- Mantiq
- Falsafa
- Matematika
- Astronomiya
- Tibbiyot

Tasavvuf: Bu soha ayniqsa XII asrdan boshlab Termiz, Buxoro va Samarqandda rivoj topdi. Najmiddin Kubro, Xoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G’ijduvoni kabi shaxslar bu maktabning asoschilari bo’ldilar²².

Madrasalar nafaqat ilm-ma’rifat markazi, balki ijtimoiy hayotning markaziy nuqtasiga aylangan. Ular:

- Talabalarga bepul ta’lim va turar joy taqdim etgan.
- Jamiyatda huquqshunoslar, qozilar, mudarrislar tayyorlab bergan.
- Mahalliy hokimiyat bilan aloqada bo’lgan, ilmiy va diniy masalalarda maslahat bergan²³. XIII asr Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va xalqning boy intellektual salohiyati,

¹⁷Narshaxiy, Abu Bakr. Tarixi Buxoro. – B.102.

¹⁸Nasr, S.H. Science and Civilization in Islam. – Harvard University Press, 1968.

¹⁹ Narshaxiy, Abu Bakr. Tarixi Buxoro. – Toshkent: Fan, 1966. – B.57.

²⁰ Muhamadxonov, A. Srednevekoviyy Samarqand. – Tashkent, 1973. – B.89.

²¹ Saidov, A. Tasavvuf va Movarounnahr. – Samarqand: Imom Buxoriy nashriyoti, 2007. – B.34.

²² Deweese, Devin. Islamization and native religion in the Golden Horde. – Penn State Press, 1994.

²³ Berdiqulov, M. O’rta asrda ta’lim tizimi. – Toshkent: TDSH, 2001, 60-bet.

mo'g'ullar istilosiga qaramasdan ma'naviy-marifiy jihatdan rivojlanishiga qaratilgan. Ajdodlarimizning bunday ta'lim jarayonidagi mazmun, shakl, metod va vositalaridan boxabar bo'lishi yoshlarning tarbiyasiga o'zining bebaho qimmatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida ta'lim va ilm-fan sohasidagi integratsiyaning muhimligi haqida ko'plab e'tibor qaratilgan. U 2017-yilgi nutqida "Ilm-fan va ta'limni rivojlantirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin"²⁴ degan edi. Bu so'zlar, aynan, Movarounnahr markazlarida ilm-fan va diniy bilimlarning uyg'unligi va taraqqiyotga hissa qo'shishidagi o'rni haqida gapiradi. Shuningdek, Prezident nutqlarida ta'limni yangilash, ilmiy maktablarni rivojlantirish, yangi kadrlar tayyorlash zaruriyati ta'kidlanadi.

Movarounnahrda ilmiy maktablar nafaqat ilmiy tadqiqotlar olib borish, balki yangi kadrlar tayyorlashda katta rol o'ynagan. Samarqand va Buxoro ilmiy maktablari o'z zamonida nafaqat Islom dunyosiga, balki butun Yevropa ilm-faniga katta ta'sir ko'rsatgan. Yevropa olimlari, masalan, R. Hoke, G. Kepler va Galileo Galilei, Ulug'bekning astronomiya bo'yicha ishlanmalari bilan tanishib, o'z ilmiy izlanishlariga asos sifatida foydalanishgan.²⁵ Yevropa ilmiy maktablarida ham Movarounnahrda ishlab chiqilgan ilmiy nazariyalar o'rganilgan va rivojlangan. Ayniqsa, astronomiya, tibbiyot va falsafa sohalarida ulush olish uchun Movarounnahr markazlarining ilmiy merosi asos bo'lgan. Masalan, Xorazmdan yetishib chiqqan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy o'rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan edi. Uning buyukligi o'sha davrning deyarli barcha fanlariga qo'shgan betakror ilmiy merosida namoyon bo'ladi. Beruniyning olimlilik salohiyatiga mashhur sharqshunos olim I.Yu. Krachkovskiy „uning qiziqqon ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir“ deb baho bergan edi. G'arb tadqiqodchilaridan M.Meyerxoff esa „Beruniy musulmon fanini namoyish etuvchi qomusiy olimlarning eng mashhuri bo'lishi kerak“ degan fikrni bildiradi.²⁶ Bu ilmiy maktablardan chiqqan olimlar ilm-fan va madaniyatni tarqatishda muhim vosita bo'lgan.

Shuningdek, Prezident Mirziyoyevning 2017-yilgi nutqida ta'limning jamiyatdagi ijtimoiy rolga alohida e'tibor qaratilgan. "Ta'lim tizimi, avvalo, jamiyatda barkamollik, adolat va barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi,²⁷ deb ta'kidlangan edi. Bu fikr, albatta, Movarounnahr markazlaridagi ta'lim tizimining ham jamiyatni rivojlantirishdagi o'rnini o'zida aks ettiradi. Movarounnahrda ta'lim va ilm-fan rivojlanishi nafaqat mahalliy, balki butun Islom olamiga, Yevropa va Hindistonga ham ta'sir ko'rsatgan. Buxoro, Samarqand va Xorazm ilmiy markazlari o'z zamonida butun dunyodagi ilm-fan sohalarini rivojlantirishda asosiy platforma bo'lib xizmat qilgan. Yevropa olimlari tomonidan o'rganilgan, ishlab chiqilgan va keyinchalik ularning o'z ilmiy tadqiqotlarida qo'llanilgan asarlar, bu ilmiy oqimlarning tarqalishining isbotidir.

Xulosa qilib aytganda X-XIII asrlarda Movarounnahrda ta'lim tizimida yangi pedagogik usullar va metodlar tatbiq etila boshladi. Dastlabki davrlarda o'quv jarayoni asosan og'zaki so'zlashuvga asoslangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan yozma manbalar, ilmiy asarlar va ko'plab ilmiy ishlar chiqarila boshlandi. Bu davrda ilmiy maktablar ko'pincha sharqning boshqa

²⁴ Shavkat Mirziyoyev. "Ta'lim tizimi va ilm-fan: Jamiyat rivojlanishining asosiy poydevori". Nutq, 2017 yil.

²⁵ Valiyev, R. *Movarounnahr va Yevropa olimlari: Ilmiy aloqalar*. – Toshkent: Yangi Nashr nashriyoti, 2014.

²⁶ Ahmed, Akbar S. (1984). Al-Beruni: The First Anthropologist. –RAIN (60). – P.9–10.

²⁷ Shavkat Mirziyoyev. Ta'lim tizimi va ilm-fan: Jamiyat rivojlanishining asosiy poydevori. – Nutq, 2017 yil.

davlatlaridan kelgan olimlar bilan hamkorlikda ishlashgan va o'zlarining ilmiy faoliyatlarini rivojlantirishda ulardan foydalanishgan. O'quv jarayonida o'quvchilarga bilim berishda uslublar va metodlar ko'paydi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida teologik va dunyoviy fanlarni o'rganishgan. Bu esa o'z navbatida, ilm-fan va ma'rifatni birlashtirishga yo'naltirilgan bir yondashuvning shakllanishiga olib keldi.

Ta'lim tizimining rivojlanishiga siyosiy va ijtimoiy omillar ham katta ta'sir ko'rsatgan. X-XIII asrlarda Movarounnahrda hukmdorlar ta'limga katta e'tibor qaratgan. Shuningdek, ushbu davrda ilm-fan va madaniyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillar ham mavjud edi. Diniy qarama-qarshiliklar, siyosiy tangliklar va ijtimoiy inqirozlar ba'zida ta'lim tizimining rivojlanishini to'xtatib qo'ygan. Shunga qaramay, shaharlarning ilmiy va madaniy rivojlanishida mustahkam asoslar mavjud bo'lib, bu ularning tarixiy ahamiyatini oshirgan.

X-XIII asrlarda Movarounnahr markaziy shaharlaridagi ta'lim tizimi, ilm-fan va madaniyat rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Movarounnahrda ta'lim jamiyatni rivojlantirishda ajralmas rol o'ynagan. Madrasalar va kutubxonalar orqali nafaqat ilmiy bilimlar, balki ijtimoiy qadriyatlar ham tarqatilgan. Buxoro va Samarqand madrasalarida o'qigan talabalar, jamiyatda o'z o'rnini topish va ilm-fan asosida amaliyot qilish uchun tayyorlangan. Shu bilan birga, ta'lim va ilm-fan jamiyatdagi adolatni, tenglikni va rivojlanishni targ'ib qilgan. Samarqand, Buxoro va boshqa markaziy shaharlar ilmiy tadqiqotlar, madaniy almashuv va diniy ta'limning uyg'unlashuvi orqali o'z davrida nafaqat Islom dunyosini, balki butun Yevropa va Osiyo ilm-fanini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Madrasalar, kutubxonalar va ilmiy maktablar, nafaqat mahalliy aholi, balki butun ilmiy jamoatchilik uchun markaz bo'lib xizmat qildi. Ta'lim tizimining o'zi jamiyatda adolat va barqarorlikni ta'minlashda, ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirishda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilgan islohotlar bugungi kunda ham Movarounnahrda ta'lim tizimining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobojonov, Sh. Movarounnahrda islom ilmlari rivoji. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008. – 45 b.
2. http://fikir.uz/blog/toshkent_islom_universiteti
3. Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademy, 2017. – 58 b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – J:5. – Toshkent: O'zME, 2003. . – 376 b.
5. Каримов.И.А. Маънавий юксалиш йўлида. - Тошкент: Узбекистан, 1998. – 369 b.
6. Beruni, A. Qonun fi tibb. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
7. Islomov, A. Buxoro madrasalari va ularning ilmiy roli. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2005.
8. Gutas, D. Avicenna and the Aristotelian Tradition. – Brill, 2001.
9. Islomov, A. Buxoro madrasalari va ularning ilmiy roli. – Buxoro: Buxoro nashriyoti. (2005).
10. Narshaxiy, Abu Bakr. Tarixi Buxoro. – 102 b.
11. Nasr, S.H. Science and Civilization in Islam. – Harvard University Press, 1968.
12. Narshaxiy, Abu Bakr. Tarixi Buxoro. – Toshkent: Fan, 1966. –B.57.
13. Muhamadxonov, A. Srednevekoviy Samarkand. – Tashkent, 1973. – 89 b.
14. Saidov, A. Tasavvuf va Movarounnahr. – Samarqand: Imom Buxoriy nashriyoti, 2007. – B:34.
15. Deweese, Devin. Islamization and native religion in the Golden Horde. – Penn State

Press, 1994.

16. Berdiqulov, M. O'rta asrda ta'lim tizimi. – Toshkent: TDSHI, 2001. – 60 b.

17. Shavkat Mirziyoyev. "Ta'lim tizimi va ilm-fan: Jamiyat rivojlanishining asosiy poydevori". – Nutq, 2017 yil.

18. Valiyev, R. Movarounnahr va Yevropa olimlari: Ilmiy aloqalar. –Toshkent: Yangi Nashr nashriyoti; 2014,

19. Ahmed, Akbar S. (1984). „Al-Beruni: The First Anthropologist“. RAIN (60). – P. 9–10.

